



PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA TAFAKKUR MUAMMOSINING O'RGANILGANLIK HOLATI

Shixova Inobat Omonovna

Xorazm viloyati pedagogik Mahorat Markazi katta o'qituvchisi, psixologiya bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD), telefon: 91-428-64-32. inobat@gmail.com.

Annotatsiya: Mazkur maqolada psixologik tadqiqotlarda tafakkur muammosining o'r ganilganlik holati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: to'g'ri fikrlash, aqliy jarayonlar, fikrlashni ijtimoiy konteksti, bilim olish, assotsiatsiya nazariyasi, bixe viorizm, psixologiya, muammoli vaziyatlar.

KIRISH

Tafakkur haqida juda ko'p izlanishlar mavjud bo'lib qadimgi mutafakkirlar tafakkurning inson hayotidagi rolini yuqori baholaganlar. «Odamlarning baxti nullarda yoki pulda emas, balki ehtiyojkorlik va to'g'ri fikrlashdadir» deb ta'kidlaydi Demokrit. U yaratgan konsepsiaga ko'ra tafakkur inson xohish-istikclarini cheklovchi hamda inson xulq-atvorini tartibga soluvchi omil sifatida inson hayoti va faoliyatida katta ahamiyat kasb etadi. Xususan, J. Dyu insonning xulq-atvori, boshqaruvi mexanizmlarini o'r ganishga bag'ishlangan tadqiqotida muayyan qarashlarni aytib o'tgan. Psixologik tadqiqotlarda tafakkur muammosi MDH mamlakatlari olimlari tomonidan o'r ganilgan. Tafakkur va aqliy operatsiyalarni o'r ganish masalasi haqidagi tadqiqotlar ko'plab olimlar tomonidan amalga oshirilgan. G. Eyzenk va F. Galton kabi olimlar fikrlash jarayonlarini psixologik asoslardan kelib chiqib o'r ganishgan. L.S. Vygotskiy esa fikrlashni ijtimoiy kontekstda, muloqot va madaniyat bilan bog'liq holda tushuntirgan. Shuningdek, S.L. Rubinshteyn va A.N. Leontyev aqliy jarayonlar va inson faoliyatining o'zaro aloqalarini chuqur tahlil qilishga e'tibor qaratishgan. Ular fikrlashni nafaqat bilim faoliyati, balki ijtimoiy va amaliy faoliyat bilan bog'lash orqali rivojlantirishga harakat qilishgan. Ushbu olimlarning yondashuvlari fikrlash



jarayonini turli nazariyalar nuqtai nazaridan tahlil qilishga imkon beradi hamda zamonaviy ta’lim va psixologiya sohalarida muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLARNI O'RGANISH

Fikrlash jarayonlari va aqliy operatsiyalar haqidagi tadqiqotlar ko‘plab fanlar kesimida o‘rganilgan. Falsafa, tibbiyot, diniy oqimlar, psixofiziologiya va mantiq fanlari bu masalani turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqqan. Psixologiyada fikrlashning materialistik yondashuvi sensatsionizm paradigmasidan kelib chiqadi va hissiy tuyg‘ular bilish jarayonini belgilaydi. Bu yondashuvda tafakkur tasvirlar va uyushmalar o‘yiniga asoslangan holda ko‘riladi. Inson bilishi, asosan, hissiyotlar va sezgilar orqali shakllanadi, bu esa fikrlashni asosiy komponent sifatida ta’kidlaydi. Materializm konsepsiyasida tafakkur jarayoni o‘z ichiga tasvirlar, assotsiatsiyalar va ularning o‘zaro aloqalarini oladi, bu esa, o‘z navbatida, bilim olish jarayonida muhim rol o‘ynaydi.

Assotsiatsiya nazariyasi, haqiqatan ham, falsafiy asoslardan kelib chiqadi va ongning mohiyatini soddalashtirishga qaratilgan. Ushbu nazariyaga ko‘ra, sezgilar va g‘oyalar bir-biri bilan assotsiativ aloqalar orqali bog‘lanadi, bu esa murakkab tuzilmalarni yaratishga imkon beradi.

Assotsiatsiya nazariyasi oddiy tushuntirishlar yordamida murakkab g‘oyalarni tahlil qilishga imkon beradi, bu esa, o‘z navbatida, inson fikrlashining ko‘p qirrali tabiatini ochib beradi. Biroq ushbu nazariyaning muammosi ijodiy fikrlashni tushuntirishdagi cheklovdir. Assotsiatsiyalar ijodiy jarayonlar uchun zarur bo‘lishi mumkin, ammo ijodiy fikrlashning o‘ziga xos qobiliyatları, ya’ni yangi g‘oyalarni yaratish va ularga erishish qobiliyati, ko‘pincha assotsiativ jarayonlardan tashqarida qoldiriladi. Ijodiy fikrlashni assotsiativ aloqlardan mustaqil ravishda tushunish uchun ba’zi olimlar bu qobiliyatni ongning birlamchi va avtonom qismi deb hisoblashadi. Bu yondashuv ijodiy jarayonlarning murakkabligi va turli faktorlar, masalan, motivatsiya, tajriba va muloqot, ijodiy fikrlashga qanday ta’sir qilishini o‘rganishga yo‘naltirilgan.

Bixevoirizm psixologiyada, fikrlash va aqliy operatsiyalarni inson faoliyatining asosiy jarayonlariga qisqartirishga intiladi. Bu yondashuv, asosan, xulq-



atvor va tashqi muhit ta'sirini hisobga olib, fikrlashni ko'p hollarda ichki jarayonlardan ko'ra ko'rinaradigan xulq-atvor bilan bog'laydi. Bixevoiristlar uchun aqliy jarayonlar ko'proq o'rganish va reaksiya orqali tushuntiriladi, bu esa tafakkur va hissiy holatlarni nazorat qilishga qaratilgan tadqiqotlarga olib keladi.

Shu bilan birga, bu yondashuv ijodiy fikrlash va aqliy jarayonlarning murakkabligini to'liq yoritmasligi mumkin. Bixevoirizmni yanada kengroq tushunish uchun, boshqa nazariyalar, masalan, kognitiv psixologiya bilan birgalikda ko'rib chiqish muhimdir. Würzburg maktabi fikrlash jarayonlarini o'rganishga idealistik yondashuvni tatbiq etib, uni eksperimental tadqiqot mavzusi sifatida belgilashga harakat qildi. Bu yondashuvda, K.Byuller, O.Kulpe, X.J.Vatt va O.Selz kabi olimlar «eksperimental kuzatish» usulidan foydalanib, ongda sodir bo'ladigan jarayonlarni o'rganishdi. Ular fikrlash jarayonining ichki mexanizmlarini tushunishga intilishdi.

Gestalt psixologiyasi esa tafakkurni boshqacha yondashuv bilan o'rganadi. Bu yondashuv nuqtai nazaridan, fikrlash jarayonlari murakkab holatlar va muammolarni hal qilishda asosiy elementlarni aniqlash orqali amalga oshadi. «Baland ovozda fikr yuritish» usuli orqali tajribalar o'tkazilib, muammoli vaziyatlar va «insight» tushunchalari o'rganildi. Kyoler, Mayer, Vertgeymer va Dyunker kabi olimlar bu sohada o'z hissalarini qo'shdilar.

Torndik, Uotson, Dekart va Kant kabi olimlar esa fikrlash jarayonlarini «rag'batlantirish-javob» xatti-harakatining asosiy modeli orqali tushuntirishga harakat qildilar. Bu yondashuv xulq-atvorning tashqi rag'batlar va javoblar bilan bog'liqligini ta'kidlaydi hamda fikrlash jarayonlarini aniqlashda yangi ko'zqarashlar va metodlarni taklif qiladi. Bizningcha, ushbu nazariyalar tafakkurning psixologik asoslarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

M.B.Gamezo «Tafakkur voqelikning umumlashgan holda va so'z hamda o'tmish tajriba vositalarida aks ettirilishi» ekanligini bayon qiladi. U tafakkurning umumlashgan, so'z vositasida va vositali atrof-muhit hodisalarini aks ettira olishini ta'kidlaydi. Lekin bu ta'rif ham tafakkur tushunchasini to'laqonli ravishda yoritishda birmuncha qisqalik qiladi. Shu sababdan tafakkurni biz yuqorida keltirib o'tilgan



nazariyalar asosida, ularni umumlashtirgan holatda quyidagicha tushunsak, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

David Gartli va Djozef Pristlilarning tahlilicha, sodda assotsiativ tasavvurlarni inson bosh miyasining katta yarim sharlarida sodir bo‘ladigan fiziologik, neyrofiziologik bog‘lanishlar bilan, aynan identik narsa voqelik deb tushuntirishga, ularni o‘zaro tenglashtirishga harakat qilganlar. Chunonchi, D.Gartli psixologiya fanini ruhiyat fizikasi deb nomlashga qaror qilgan. Psixologiya fanining yana bir vakili P.I.Ivanovning darsligida «Tafakkur insonning shunday aqliy faoliyatidirki, bu faoliyat voqelikni eng aniq (to‘g‘ri), to‘liq, chuqur va umumlashtirib aks ettirishiga (bilibishga), insonning tag‘in ham oqilona amaliy faoliyat bilan shug‘ullanishiga imkon beradi», deb ta’riflaydi. Ushbu ta’rifda tafakkurning to‘la, aniq va umumlashtirilgan holda aks ettirilishi ta’kidlab o‘tiladi. Ta’lim jarayoniga ontologik yondashuvdan kelib chiqib tafakkur muammosini tadqiq etgan I.M.Spivak aynan fikr yuritishni yangicha xulq-atvor shakli sifatida baholaydi. Shundan kelib chiqib, tadqiqotchi xulq-atvorning quyidagi komponentlarini ajratib ko‘rsatadi: refleksivlik, yo‘naltiruvchi, boshqaruvchi hamda mazmunli.

ASOSIY QISM

Ontologik yondashuv yosh omili va yoshga doir xususiyatlarni inobatga olishni talab etadi. O‘smirlarda tafakkurni rivojlantirishning tarkibiy komponentlarini aniqlashtirishda ontologik yondashuv xususiyatlariga asoslanib faoliyat bosqichlarini belgilab olish lozim.

Tadqiqotchi J.Gilfordning fikricha, ijodiy fikrlash tafakkur boyligi, vaqt birligida ko‘p sonli yangi g‘oyalar o‘ylab topish, ishlab chiqarish qobiliyati; sharoitga qarab moslashuvchan tafakkur bir vazifadan boshqasiga o‘tishning tezligi; boshqalarga o‘xshamaslik, bevosita bog‘lanmagan aloqadorliklarni ishlab chiqish, g‘ayrioddiy javoblar berish, nostandart yechimlar topish; ijodiy fikrlash quyidagi parametrlar bilan xarakterlanadi: tafakkur boyligi (vaqt birligida ko‘p sonli yangi g‘oyalar o‘ylab topish, ishlab chiqarish qobiliyati); sharoitga qarab moslashuvchan tafakkur (bir vazifadan boshqasiga o‘tishning tezligi); boshqalarga o‘xshamaslik (originallik), bevosita bog‘lanmagan aloqadorliklarni ishlab chiqish (o‘ylab topish),



g‘ayrioddiy javoblar berish, nostandart yechimlar topish; qiziquvchanlik; farazlarni (gipotezalarni) ishlab chiqish qobiliyati; javob reaksiyasining rag‘batdan (stimuldan) mantiqiy mustaqil bo‘lishi; rag‘bat va javob reaksiyasi orasida muayyan (aniq) aloqadorlik mavjud bo‘lganda, javobning voqelikdan uzilganligi. XVIII asrning ikkinchi yarmida Angliyada psixologiyaning assotsiativ oqimi vujudga kelgan bo‘lib, u tez sur’at bilan yer yuzining ko‘pgina davlatlariga kirib bordi. Assotsiativ oqimning asoschisi David Yum bo‘lib, uning maslakdoshlari David Gartli, Djozef Pristlilar psixik hodisalar, holatlar, jarayonlar hamda tasavvur obrazlarini yaxlit holda birlashishning asosiy qonuni tariqasida assosiatsiyalar to‘g‘risidagi psixologik ta’limotni yaratganlar. David Yumning ta’limotiga binoan, o‘zining «Men» ekanligini tan olish, ongning murakkab xususiyatlari, holatlari, hodisalari, jarayonlari va ularning mahsullari o‘zini o‘zi anglash yoki o‘zaro tashqi bog‘lanishlar bilan uzviy aloqaga ega bo‘lgan «tasavvur birikmali»dan tashkil topgandir. Bizningcha, bu ilmiy ishlar tafakkur mavzusini yoritishda muhim sanaladi.

Hatto D.Pristli barcha ruhiy (bilish) jarayonlarini miya tebranishlarining mahsuli deb dalillashga intilgan. Bunday yondashuv o‘sha davr uchun o‘ziga xos munosabatni o‘zida gavdalantirgan edi. «Tafakkur jarayonlari mana shu davrgacha juda ko‘p olimlar, psixologlar tomonidan o‘rganilib, ular tomonidan ko‘plab nazariyalar yaratilgan. «Tafakkur – ijtimoiy-sababiy, nutq bilan chambarchas bog‘liq muhim bir yangilik qidirish va ochishdan iborat psixik jarayondir, boshqacha qilib aytganda, tafakkur voqelikni analiz va sintez qilishda uni bevosita va umumlashtirib aks ettirish jarayoni», - deb ta’rif beradi A.V.Petrovskiy. Bu borada L.S.Vigotskiy va A.N.Leontyevlarning konsepsiyalari muhim ahamiyat kasb qildi. Unga ko‘ra, insonni ontogenetika taraqqiy etish jarayonida tashqi faoliyat asta-sekin ichki (aqliy) xatti-harakatlarga aylanadi. Bunda o‘smirlar jarayonning tuzilishini o‘zlashtirib tashqi bilimlardan qanday foydalanish qoidalarini egallaydilar. Dastlabki o‘zlashtirishdan keyin umumlashtirish vujudga keladi. Uni amalga oshirish tarkiblarining qisqarishi va darajasining pasayishi bilan ajratib turadi. Psixologiya fanining yana bir vakili P.I.Ivanovning darsligida: «Tafakkur insonning shunday aqliy faoliyatidirki, bu faoliyat voqelikni eng aniq (to‘g‘ri), to‘liq, chuqur va umumlashtirib aks ettirishiga



(bilishga), insonning tag‘in ham oqilona amaliy faoliyat bilan shug‘ullanishiga imkon beradi», - deb ta’riflaydi. Ushbu ta’rifda tafakkurning to‘la, aniq va umumlashtirilgan holda aks ettirilishi ta’kidlab o‘tiladi, xolos. Tafakkur nafaqat psixik jarayon, balki u insonning tashqi muhit bilan bevosita aloqasida ishtirok etuvchi, tashqi muhit ham unga bevosita ta’sir etuvchi holatdir. Tafakkur jarayoni o‘zining ma’no-mazmun jihatidan turlicha ko‘rinishda aks etib, uning quyidagi turlarini keltirib o‘tish maqsadga muvofiq. Konvergent yoki analistik tafakkur, divergent tanqidiy tafakkur va ijodiy tafakkur. Bu ko‘nikmalardan atrofimizdagi dunyoni tushunish, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, mantiqiy tanlovlар qilish va o‘z qadriyatlarimiz va e’tiqodlarimizni rivojlantirish, dunyoni bilish uchun foydalanamiz. Konvergent tafakkur – bu bizning xotiramiz, atrofimizdagi manbalar yoki mantiqdan foydalangan holda savolga eng yaxshi javobni topish jarayoni. Bu fikrlash qobiliyati muhim ijodkorlikni yoki lateral fikrlash strategiyalarini talab qilmaydi. Bu murakkab yoki o‘ylashni talab qiladigan muammolarni hal qilish uchun eng yaxshisi emas. Buning o‘rniga u juda oddiy fikrlash jarayonlaridan foydalanadi.

Tafakkurning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqqan professor Y.M.Orlov insonning ruhiy salomatligi masalasiga to‘xtalib, quyidagi fikrni bildirib o‘tadi: «Tafakkur yuritish hayot falsafasining, ong va tana salomatligining eng ishonchli yo‘llaridan biridir. Ushbu metodika yangi hissiy-aqliy odatlarni yuqori darajada o‘zlashtirishga imkon beradi, o‘tmishdagi patogen fikrlash tajribasini to‘playdi. Globallashuv jarayonlarida axborotlarning tez eskirayotgan jadal oqimlari sharoitida shaxsning intellekti va dunyoqarashi, ilmiy va madaniy darajasi, kasbiy mahorati va kreativ qobiliyatlariga nisbatan talablarning ortib borishi jamiyat a’zolarida ta’limiy tayyorgarlikni uzluksiz oshirib borishiga ehtiyojni shakllantirish va uni ro‘yobga chiqarishga qulay sharoitlarni yaratish muammosini qo‘ymoqda. Chunki bunday ehtiyoj barkamol shaxsning muhim sharti bo‘lishi bilan birga zaruriy belgisi hamdir. Psixolog O.Zels tafakkurni intellektual operatsiyalar harakati sifatida qabul qilgan va uning mohiyatini tavsiflab berishga erishgan. Muallif o‘z oldiga fikr yuritish faoliyati (jarayoni)ning u yoki bu tarkibiy qismlari qay tarzda, qay yo‘sinda shakllanishini kuzatish, intellektual faoliyat bosqichlarini ko‘rsatish, uning produktiv



va reproduktiv ko‘rinishdagi ziddiyatlarini kamaytirish yoki tamoman bartaraf qilish vazifasini qo‘yadi. U masala yechish jarayonini o‘rganishda «Umumiylikka ega bo‘lgan masala»ni vujudga keltirish bosqichlariga alohida e’tibor qaratadi.

Demak, til inson tafakkurining real voqelik kasb etishiga xizmat qiladi. Tafakkur va uning o‘ziga xos xususiyatlari «tafakkur» va patogen tafakkur tushunchalari mazmunini aniqlashtirish imkonini beradi.

Har bir inson nafaqat o‘zining his-tuyg‘ularini va xatti-harakatlarini nazorat qilishi, balki muayyan qoidalarga muvofiq fikrlash tarzini ham nazorat qila olishi kerak. O‘smlar hayoti va faoliyatida o‘zini-o‘zi kamolotga yetkazish jarayoni muhim rol o‘ynaydi, lekin o‘z-o‘zini boshqarishning tarkibiy qismlari (o‘zini-o‘zi tahlil qilish, nazorat etish, baholash, tekshirish va boshqalar) ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Tafakkur qo‘llab-quvvatlovchi va ruhlantiruvchi fikrlash tarzi hisoblanadi. Shuningdek, fikrlash shakli bu ma’lum bir algoritmdan foydalangan holda fikr yuritish va o‘rganishning shaxsiy patogen (nofikrlash) stereotiplarini qayta ko‘rib chiqish va tartibga keltirishdan iborat bo‘lib, muayyan faoliyat davomida yuzaga keladigan muammo va qiyinchiliklarni to‘g‘ri aks ettirish qobiliyatidir. Har bir kishi hayotiy faoliyati davomida tez-tez astenik (yoqimsiz) tuyg‘ularni boshdan kechiradi yoki salbiy hissiy kechinmalarni vujudga keltiradigan noqulay vaziyatlarga duch keladi: xafagarchilik, ishonchsizlik, muvaffaqiyatsizlik, umidsizlik, sabrsizlik, aybdorlik va boshqalar. Ba’zilarimiz shu kabi haqiqiy his-tuyg‘ular oldida o‘zimizni yo‘qotib qo‘yamiz va aqliy kuchimiz zaiflashadi. Boshqalar esa o‘zlari bilan tez kelishib, bunday noqulay holatlarni tez yengadi va hayotda munosib o‘rinni topishga qodir. L.A.Konanchuk emotsiyal kompetentlik va refleksiya muammosini tadqiq etar ekan, refleksiyani fikr yuritishning muhim tarkibiy komponenti sifatida belgilab, o‘smlarda emotsiyal kompetentlikni rivojlantirishning ichki omili sifatida baholash mumkin, degan xulosaga keladi

Refleksiya muammosini tadqiq etgan olima L.A.Kananchuk quyidagicha xulosaga keladi: o‘zaro ijtimoiy munosabatlar jarayonida insonlarning ma’lum bir tarzda to‘g‘ri harakat qila olmasliklari, subyektlarning kutilgan va haqiqiy xatti-



harakatlari o‘rtasida hamda bir-birini tushunishdagi nomuvofiqliklar jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Psixologiya, tibbiyot va pedagogika sohasidagi mutaxassislar ushbu va boshqa ko‘plab savollarga javob topishga harakat qilishmoqda. Zamonaviy psixologiyada mazkur holatlar fikrlash muammosining ajralmas qismi hisoblanib, xorijlik olimlardan Yu.M.Orlov, S.N.Morozyuk, Y.V.Miroshnik, K.E.Izard, Dj.Dyui, R.J.Sternberg, K.Sternberglar tafakkurning mohiyati, tabiatи va uni rivojlantirish mexanizmlarini, tafakkur jarayonining psixologik xususiyatlari, fikrlashning ijtimoiy mazmuni va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslarini tadqiq qilishga alohida e’tibor qaratmoqda. Masalan, Z.Freyd ruhiy kasallik sifatida nevroz xatti-harakatlarning madaniy aqliy avtomatizmlari tomonidan yaratilganiga ishonch hosil qiladi. K.Yung shaxsning arxetipik xususiyatlari bilan belgilanadigan fikrlash va tushunish usullarini yengib o‘tish zarurligini ta’kidlaydi. Ya’ni, har doim ham mantiqiy qoidalarga to‘g‘ri kelmaydigan qoidalariغا muvofiq fikrlashni boshqarishga urg‘u beradi. K.Xornining fikricha, inson xatti-harakati ko‘pincha madaniy omillar bilan tartibga solinadi, chunki bizning madaniyatimiz oqilona fikrlashga katta ta’sir ko‘rsatadi, uni yuksaltiradi va irratsional prinsipni pastroq deb hisoblaydi. M.Jeymsning fikricha, ilk tafakkurning asosi hozirgi paytda sodir bo‘layotgan narsalarni tushunish qobiliyati sifatida xabardorlikdir. Tafakkuri keng odam o‘zining ichki his-tuyg‘ulari, fantaziyalari dunyosini biladi, undan qo‘rqmaydi va uyalmaydi, uning fikri va tanasi «bu yerda va hozir» vaziyatga to‘la-to‘kis mos keladi.

Darsliklarda tafakkurga turlicha ta’rif berilgan bo‘lib, F.V.Petrovskiy ta’rifida tafakkur voqelikni analiz va sintez qilishda uni bevosita va umumlashtirib aks ettirishi, P.I.Ivanovning psixologiya darsligida tafakkurning aniq, umumlashtirilgan va to‘liq bo‘lishi, M.V.Gamezo fikricha, tafakkur voqelikning umumlashgan holda va so‘z hamda o‘tmish tajriba vositalarida aks ettirilishi ta’kidlanadi. Tafakkur psixologiyasi va uning tadqiq qilishning keyingi bosqichdagi izlanishlar anchagina o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Tafakkur muammosini o‘rganishga doir ilmiy izlanishlarning tahlili asosda ularni qator yo‘nalishlarga



ajratish imkoniyatiga ega bo‘lindi. Mazkur yo‘nalishdagi izlanishlar qisqa davrlar uchun ham yangi tadqiqot obyektlari bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz. Ularni tugallangan va yana o‘rganishga ehtiyoji yo‘q muammo sifatida xulosalab bo‘lmaydi. Aqliy harakatlar majmui sifatida fikrlashning an’anaviy tushunchasidan farqli o‘laroq, «fikrlash» ya’ni «tafakkur» atamasi ichki muammolarning yechimini aks ettiradi (masalan, ishonchsizlik, qo‘rquv, muvaffaqiyatsizlikni boshdan kechirish va boshqalar). S.Maddi mazkur konsepsiyanı – «hissiy fikrlash» qobiliyati sifatida tushunadi. Ong holatini o‘zgartirishda shaxsiy aks ettirishning o‘rni va inson psixokorreksiysi samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni tadqiq etgan psixolog olim A.B.Rossoxin fikrlash usulining quyidagi ijobiy xususiyatlarini ajratib ko‘rsatadi:

- fikrlashni o‘rgatish shaxsda ko‘plab ijobiy o‘zgarishlarni ta’minlaydi;
- fikrlash aqliy faoliyatning xilma-xilligi va mustaqilligini ta’minalash vositasi sifatida xizmat qiladi.

T.N.Vasileva o‘qituvchining fikrlashiga bolani tarbiyalash vositasi sifatida jiddiy e’tibor beradi hamda o‘quvchilarda fikrlashni shakllantirishga xizmat qiluvchi korreksion-rivojlantiruvchi o‘yinlar va mashqlar to‘plamini ishlab chiqadi..

«Tafakkur» tushunchasini o‘rganish asosida uning quyidagi asosiy xususiyatlarga ega ekanligi haqidagi xulosaga keltingan:

- 1) tafakkur voqeа-hodisalarni aniq va umumlashgan holda aks ettirishga imkon beradi;
- 2) borliqni bilvosita aks ettiradi, ya’ni inson o‘zlashtirgan tajribalariga tayangan holda yangi bilimlarni hosil qiladi;
- 3) ijodiy fikr yuritish va faoliyatdagi ijodkorlik inson tafakkurining muhim xususiyati hisoblanadi;
- 4) tafakkur til bilan bevosita bog‘liq. Chunki fikrlashni, tafakkur yuritishni ideal va ijtimoiy hodisa sifatida baholash mumkin. Sababi u faqatgina til vositasida reallikka aylanadi. Natijada barcha uchun tushunarli va bevosita qabul qilinadigan, his etadigan shaklga kiradi va insonlar o‘rtasida o‘zaro fikr almashish vazifasini bajaradi. R.Y.Galperin tomonidan «tafakkur voqelikning umumlashgan holda va so‘z hamda o‘tmish tajriba vositalarida aks ettirilishi» ekanligi bayon qilingan. U



tafakkurning umumlashgan so‘z vositasida va vositali atrof-muhit hodisalarini aks ettira olishini ta’kidlaydi;

J.Piajening ta’kidlashicha, «Ijtimoiy hayot uch narsaning ta’siri – til, mazmun, qoidalar asosida shakllantiriladi». Bu borada o‘zlashtirilgan ijtimoiy munosabatlar o‘z-o‘zidan tafakkurning yangi imkoniyatlarini yaratadi. 11-12 yoshdan boshlab o‘smir endi mantiqiy fikrlab harakat qila boshlaydi. O‘smir bu yoshda xuddi kattalar singari keng qamrovli tahsil etishni o‘rgana boshlaydi. O‘smir tafakkurning nazariy darajaga qanchalik tez ko‘tarila olishi, o‘quv materiallarini tez va chuqr egallashi uning intellektini ham rivojlanishini belgilab beradi. O‘smirlig davri yuqori darajadagi intellektual faollik bilan farqlanadi. Bu faollik o‘ta qiziquvchanlik hamda atrofdagilarga o‘z layoqatlarini namoyish etish, shuningdek, ularda yuqori baho olish ehtiyojining mavjudligi bilan belgilanadi. O‘qituvchi va tarbiyachi uchun bolalarning o‘smirlig davri psixologiyasini bilish psixologik nuqtai nazaridan ham, pedagogik nuqtai nazaridan ham muhimdir. Bu davrni biz yana o‘tish davri ham deb ataymiz. Tafakkurga berilgan ta’riflar turlicha bo‘lib, uning ikkita yoki uchta muhim xususiyati ta’kidlab o‘tiladi, xolos. Jumladan, P.I.Ivanovning darsligida: «Tafakkur insonning shunday aqliy faoliyatidirki, bu faoliyat voqelikni eng aniq, to‘liq, chuqr va umumlashtirib aks ettirishga (bilishga), insonni talqin, ham oqilona amaliy faoliyat bilan shug‘ullanishiga imkon beradi», - deb ta’riflanadi. Ushbu ta’rifda tafakkurning to‘la, aniq va umumlashtirilgan holda aks ettirishi ta’kidlab o‘tiladi xolos, lekin uning xarakterli xususiyatlari bevosita so‘z yordami bilan ifodalanishi muallifning diqqat markazidan chetda qolgan.

A.V.Petrovskiy tahriri ostidagi «Psixologiya» darsligida tafakkurga quyidagicha ta’rif keltiriladi: «Tafakkur – ijtimoiy sababiy, nutq bilan chambarchas bog‘liq muhim bir yangilik qidirish va ochishdan iborat psixik jarayondir, boshqacha qilib aytganda, tafakkur voqelikni analiz va sintez qilish, uni bevosita va umumlashtirib aks ettirish jarayonidir».

V.V.Bogoslovskiy asarida «Psixologiya», ham tafakkurga berilgan ta’rif, uning umumlashgan va bilvosita aks ettirish xususiyatlari yoritilgan. Xuddi shunga



o‘xshash tafakkur xususiyatlari F.N.Gonobolin, K.K.Platonov asarlarida ham uchraydi.

Keltirilgan ta’riflar orasida O.K.Tixomirovning «Psixologiya» asaridagi ta’rif nisbatan to‘liqroq deb hisoblanadi. Unda tafakkur predmetiga kiruvchi tarkibiy qismlar mana bunday ifodalanadi: «Tafakkur – bu o‘z mahsuloti bilan voqelikni umumlashtirib, bevosita aks ettirishni xarakterlaydigan umumlashtirish darjasи va foydalanadigan vositalarga hamda o‘sha umumlashmalar yangiligiga bog‘liq ravishda turlarga ajratishdan iborat jarayon, bilish faoliyatidir». Hozirgi vaqtda tafakkurning predmeti yuzasidan psixologiyada turli-tuman qarash va ta’riflar mavjuddir. Ularning ayrimlariga tavsifnoma berib o‘tamiz:

S.L.Rubinshteyn nazariyasiga binoan, tafakkurni psixologik jihatdan o‘rganishning asosiy predmet, jarayon, faoliyat tariqasida namoyon bo‘lishidir. Muallif tafakkur operatsiyalari shakllarini shakllantirishda jarayon, muammoli vaziyatni hal qilishda esa fikr yuritish faoliyati sifatida vujudga kelishini chuqr tahlil qilib beradi. S.L.Rubinshteyn tafakkur to‘g‘risidagi g‘oyani rivojlantirib, uni subyekt faolligining paydo bo‘lishi deb ataydi.

D.A.Leontev tafakkur psixologiyasi predmeti yuzasidan mulohaza yuritib, tafakkumi turli ko‘rinishlarga ajratadi, fikr yuritish faoliyati ekanligini tan oladi. Lekin uni predmetli-amaliy faoliyat deb nomlaydi. Shuning bilan birga tafakkurning tuzilishi, fikr yuritish motivatsiyasi to‘g‘risidagi nazariy metodologik muammolarni o‘rtaga tashlaydi.

A.V.Brushlinskiy tadqiqotlarida tafakkurning muhim yangilikni qidirish va ochish, gipoteza va nazariyalarni bashorat qilish, oldindan payqash xususiyatlari alohida ta’kidlab o‘tiladi. Amerikalik psixolog L.B.Shneyder «Ijtimoiy psixologiya» darsligida: shaxs tafakkurini nazarda tutib: «Agar odam oz bo‘lsa-da o‘zini o‘zi anglay olsa, demak, u o‘z-o‘ziga ko‘rsatmalar bera oladi», - deb ta’kidlagan. Demak, inson avvalo o‘zini anglashi, o‘z xulq-atvorini nazorat qila olishi, shaxslararo munosabatlarda o‘zini to‘g‘ri boshqara olishi zarur. Bunday shaxsiy vazifani tafakkurni rivojlantirish orqali amalga oshirish mumkin bo‘ladi.



Tafakkur faoliyati muayyan maqsadga qaratilgan alohida ongli jarayon tariqasida sodir bo‘ladi. Bosh miyaning biror uchastkasidagi faoliyat emas, balki butun bosh miya po‘stining faoliyati mana shu jarayonning fiziologik asosidir.

Tafakkur faoliyati uchun avvalo analizatorlarning miyadagi uchlari o‘rtasida vujudga keladigan murakkab bog‘lanishlar muhim ahamiyatga egadir. Analizatorlaming bosh miya po‘stidagi uchastkalari bir-biridan keskin ajralgan holda emas balki bir-biriga tutashib, bir-biri bilan chambarchas bog‘lanib ketganligi sababli mazkur bog‘lanishlaming vujudga kelishi yuqorida aytib o‘tilganidek, tafakkurning maxsus nerv-fiziologik mexanizmlaridir. Bunda ikkinchi signallar tizimining bog‘lanishlari birinchi signal tizimidagi bog‘lanishlarga tayanadi. I.P.Pavlov (1849-1936) ta’biri bilan aytganda – fikrlash tufayli shaxs «borliqning hokimiga» aylangan bo‘lsa, hayvonlar abadiy «tabiat quli» bo‘lib qolaveradilar. Shuning uchun tafakkur voqelikni bavosita, so‘z yordami bilan umumlashgan tarzda aks ettirish jarayoni hisoblanadi. Atrof-muhitdagi hodisaning tashqi ifodasi sezgi, idrok, tasavvur protseslarida yorqin, obrazli tarzda, turli alomatlari, fazoviy joylashishi va harakatida aks etadi. Tafakkurda esa inson ularning murakkab bog‘lanishlarini anglab yetadi. Demak, tafakkur – inson psixik faoliyatining yuksak formasi bo‘lib, inson tajribasida, sezgi, idrok va tasavvur asosida vujudga keladi hamda taraqqiy qilib boradi.

A.L.Venger tafakkur muammosini o‘rganib quyidagi fikrni bildiradi: «tafakkur insonning aqliy va hissiy faoliyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, u sog‘lom fikrga yo‘naltirilsa tafakkur shakllanadi. Aqliy faoliyat mavjud bilim va malakalarni egallash vazifasi bo‘lib, hissiy faoliyat esa sog‘lom turmushga bo‘lgan hissiy munosabatni anglatadi .

Tafakkurning ahamiyati to‘g‘risida O‘zbekistonda psixologiya fanining ilk asoschilaridan bo‘lgan professor M.Davletshin quyidagi fikrni bildiradi: «Odam ko‘zining alohida suratda tuzilganligi odamning olamni bilish imkoniyati uchun mutlaq chegara emas. Bizning ko‘zimizga boshqa sezgilargina qo‘silib qolmay, balki shu bilan birga tafakkurimizning faoliyati ham qo‘siladi» .

Psixolog olim E.G‘oziyev o‘smirning aqliy kamoloti haqida gapira turib shunday fikrlarni bayon etadi: «O‘smirning eng muhim xususiyatlaridan biri mantiqiy



fikrlash, aql tanqidiyligining rivojlanishidir. Bu esa kichik maktab yoshidagilardan farqli ravishda o'smirning aqliy kamolotida yangi davr boshlanganligini bildiradi. Maktab ta'limining bevosita ta'siri bilan o'smirda o'z-o'zini anglash jarayoni rivojlna boshlaydi. U o'zining fikriga, mustaqil qaroriga, biror masala yuzasidan o'z mulohazasiga ega bo'lish uchun harakat qiladi. Shuning uchun o'qituvchi yoki ota-onaning aytganlariga, kitob va darsliklarga tanqidiy nuqtai nazardan qaraydi. Ko'pincha, o'qituvchining mulohazasidan, darslikdan xato va kamchiliklarni topishga intilib, o'z gapida turib, ayrim fikrlarga qat'iy e'tiroz bildirishga, tortishishga va bahslashishga moyil bo'ladi»

E.G'oziyev yuqorida nomlari keltirilgan psixolog olimlar tomonidan tafakkurga berilgan ta'riflarga tayangan holda yaxlit ta'rifni keltirib, quyidagicha izoh bergen: «Tafakkur – atrof-muhitdagi voqelikni nutq yordami bilan bevosita, umumlashgan holda aks ettiruvchi psixik jarayon, ijtimoiy sababiy bog'lanishlarni anglashga, yangilik ochishga va prognoz qilishga yo'naltirilgan aqliy faoliyatdir. Olim o'z fikrlarini davom ettirib: «Tafakkur – inson aqliy faoliyatining aql-zakovatining, ongli xatti-harakatining yuksak shakli hisoblanadi. Tafakkur tevarak-atrofni, ijtimoiy muhitni hamda voqelikni bilish quroli, shuningdek, insonning keng ko'lamdag'i faoliyatini oqilona amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. Tafakkur jarayonida insonda fikr, mulohaza, g'oya, faraz kabilar vujudga keladi va ular ongda tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi», - deb izohlagan.

E.G'oziyevning fikriga ko'ra: «Tafakkurning mazmundorligi ko'p jihatdan emotsiyal kechinmalarga – hayratda qolish, taajjublanish, yangilikni his qilish kabilarga bog'liq. Mazkur hislarning paydo bo'lishi tafakkurning ko'tarinki ruhda kechishini ta'minlaydi, kishiga zavq-shavq, maroq bag'ishlaydi. Mulohazalar, fikrlar, tushunchalar, hukm va xulosa chiqarishlarning chinligi (yolg'onligi), to'g'riliqi (noto'g'riliqi), adekvatligi (noadekvatligi) insonda ishonch va shubhalanish hislarining mavjudligi bilan belgilanadi. Kishilar uchun quvonchli, yoqimli, maroqli kayfiyat va kechinmalar fikr yuritish jarayonlarini tezlashtiradi, fikrlash sur'atini kuchaytiradi. Aksincha, noxush kechinmalar, xafaxonlik, qo'rqinch, zo'r berishlik (stress) singari emotsiyal holatlar mulohaza yuritishni susaytirishi, uning



mahsuldorligini kamaytirishi mumkin, emotsional holatlar esa fikrning yo‘nalishiga bevosita ijobjiy yoki salbiy ta’sirini o‘tkazib turadi».

NATIJALAR

E.G‘oziyev talabalarda kechadigan psixologik xususiyatlarni atroficha o‘rganib: «Orzularning beqarorligi, maqsadlarning noaniqligi, o‘zga fikrlarga nisbatan toqatsizlik, shoshqaloqlik yoshlik davrida nisbatan ko‘proq uchraydigan xususiyatlardandir. Bunday sifatlar talabalarning otasi-onasi va yoshi ulug‘ insonlar bilan maslahatlashishi, fikrlashi emas, balki o‘ziga o‘xshaganlarni topishga intilishini kuchaytiradi. Yoshlar ijtimoiy mansubligi va yoshiga ko‘ra ularning dam olish, muloqot jarayonidagi ehtiyojlarini qondira oladigan guruhlarga birlasha boshlaydilar», - deb izohlagan.

«Inson tafakkurini shakllantirish uzoq muddatli va murakkab jarayon» ekanligini ta’kidlagan psixolog-olim E.G‘.G‘oziev quyidagi fikrni keltirib o‘tadi: «Axloq tarbiyasidagi qo‘pol xatolar bolaning ruhiy dunyosiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli shaxs dunyoqarashini tubdan qayta qurish, tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish masalasiga alohida e’tibor berish zarur.

Q.Husanboyeva inson tafakkuri tahliliga bag‘ishlangan qator adabiyotlar va o‘z kuzatishlariga asoslanib, mustaqil fikrlashga quyidagicha ta’rif bergan: «mustaqil fikrlash insonning o‘z oldida turgan muammoni aniq maqsad va vazifalarni belgilagan holda bilimi hamda hayotiy tajribalariga tayanib, intellektual imkoniyati darajasida turli yo‘l, usul, vositalar yordamida mustaqil ravishda hal qilishga yo‘naltirilgan aqliy faoliyatdir». Ijobjiy fikrlash – bu hayotga, o‘ziga va sodir bo‘layotgan voqealarga ruhiy munosabatning bir turi hisoblanadi.

Agar o‘smirlarda ijobjiy fikrlash rivojlangan bo‘lsa, hayot baxtli, osoyishta va tabassumlarga to‘la ko‘rinadi. Bu, shuningdek, yashash uchun zarur bo‘lgan narsani topish uchun fikrni ochishga imkoniyat yaratadi. Ilk fikrlash doirasini kengaytirish uchun o‘smirlar ko‘proq o‘zlarida ilmiy dunyoqarashni kengaytirishi va keyin ma’lum bir tuyg‘u haqida o‘ylash odatini rivojlantirishlari lozim. Bizning talqinimizcha, har bir o‘smir uchun ijobjiy fikrlash zavq olish qobiliyatidir va zavqlanish qobiliyati juda muhimdir, chunki ijobjiy his-tuyg‘ular, zavq va yaxshi



kayfiyatning tez tiklanishiga yordam beradi. Yaxshi kayfiyatdagi o'smirlarning ishslash qobiliyati yuqori bo'lib, katta muvaffaqiyatlarga erisha oladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, fikrlash ko'nikmalarini o'zlashtirish uchun, avvalo, shaxs o'zida kechadigan aniq emotsiyal holatlar masalan, nafrat, uyat, muvaffaqiyatsizlik, ishonchsizlik, noadekvat baholash va salbiy fikrlar haqida yangicha tafakkur yuritishni tarbiyalashi lozim. Ana shunda inson o'zida mavjud bo'lgan muayyan stereotip fikrlar va xulq-atvor ko'nikmalaridan xalos bo'ladi. Insonning atrof-muhitni idrok etish jarayonini kuzatish asosida uning patogen fikr yuritish ko'nikmalarini tadqiq etish mumkin. Tafakkur va uning rivojlanishi, ta'lim jarayonining muhim jihatni bo'lib, pedagogik-psixologik talqin bu jarayonni yanada chuqurroq tushunish imkonini beradi. O'quvchilarni fikrlashga, o'z g'oyalarini ifodalashga va innovatsion yechimlarni ishlab chiqishga rag'batlantirish orqali ta'lim samaradorligini oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN BOSHQA ADABIYOTLAR

1. Alieva M. Trening razvitiya jizennix seley / M.: Alieva, Ye. Troginxina – Spb.: Rech, 2002. – 174 s.
2. Aliqulov X., Omonboeva R. Jomiy va Davoniylar ta'lim-tarbiya haqida. – T.: “O'qituvchi”, 1981. – B. 36.
3. Aliqulov H. Abu Nasr Forobiyning ijtimoiy-ma'naviy merosi. – Toshkent, “Noshir”, 2012. – 112 b.